



**O'TKIR RESPIRATOR VIRUSLI INFEKSIYALARIDA OG'IZ
BO'SHLIG'I SHILLIQ PARDASIDA UCHRAYDIGAN
IKKILAMCHI BAKTERIAL INFEKSIYALARGA
FITONSITLARNING TA'SIRI**

Abdiraimov Azim Akbarovich

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti
Stomatologiya fakulteti talabasi

Turaqulov Otabek Murodullayevich

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti
Stomatologiya fakulteti talabasi

Shayqulov Hamza Shodievich

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti (Ilmiy rahbar)

Annotatsiya. O'tkir respirator virusli infeksiyalari bilan kasallanganlar og'iz bo'shlig'i va nafas yo'llari shilliq pardasida ko'paygan ikkilamchi patogen bakteriyalar bir necha haftalab, ba'zan bir necha oylar kasallikning cho'zilishiga sabab bo'ladi. O'RFI kasalliklarida ko'p miqdorda piyoziSTE'mol qilish ikkilamchi infeksiyalarning shilliq qavat to'qimalarida shartli patogen mikroblarning ko'paymasligiga to'liq asos bo'la oladi.

Kalit so'zlar: og'iz bo'shlig'i, fitonsid, piyozi, virus, kandida, zamburug', shartli patogen, infeksiya

Kech kuz, qish va erta bahor oylari uchun mavsumiy bo'lgan yuqori nafas yo'llarining viruslar (gripp, paragripp, adenovirus, koronavirus, RS- virus va boshka viruslar) tomonidan o'tkir yallig'lanishi nafas yo'llari va og'iz bo'shlig'i shilliq qavatlarida ikkilamchi infeksiya – shartli patogen bakteriyalarning rivojlanishi uchun asosiy omildir. Bunday virusli kasalliklar turidan kelib chiqib 3-5 kundan 7-14 kungacha davom etadi va organizmda immunitet hosil bo'lgach elliminatsiyalanadi. Ammo, ular zararlagan shilliq kavatlarga kirib ko'paygan ikkilamchi patogen bakteriyalar bir necha haftalab, ba'zan bir necha oylar kasallikning cho'zilishiga sabab bo'ladi.

An'anaviy tibbiy amaliyotda bunday virusli infeksiyalar asoratlanmasligi uchun antibiotiklar qo'llanilib, ikkilamchi infeksiyalar oldi olinadi. Ammo, antibiotiklar organizmning immun himoyasini pasaytirishi, organizm normal mikroflorasiga keskin ta'sir ko'rsatib disbakteriozlarni keltirib chikarishi, moddiy va funksional kumulyatsiyasi sababli nojuya ta'sirlar keltirib chiqarishi ko'pchilikka ayon.

Tadqiqotning maqsadi. O'tkir respirator virusli infeksiyalari bilan kasallanganlarning og'iz bo'shlig'i shilliq pardasida uchraydigan ikkilamchi bakterial infeksiyalarga piyozi fitonsitlarining ta'sirini o'rGANISH.




Materiallar va usullar.


2023 yilning yanvar – mart oylarida o'tkir respirator virusli infeksiyalari (O'RFI) bilan kasallangan 31 nafar (tajriba guruxi) va kasallananmagan 14 nafar talabalar (nazorat guruxi) og'iz bo'shlig'i shilliq qavatlarida ikkilamchi – shartli patogen bakteriyalarni ajratib olish uchun so'lak olinib, 1% li shakarli agar, 5% li qonli agarli muhitlarga (nazorat) hamda piyozi fitonsidi ta'sirini o'rganish maqsadida piyozi shirasi tomizilgan oziq muxitlariga ekildi. Termostatda 37⁰S da 1 sutka o'stirilgandan so'ng ular qiyosiy o'rganildi – surtmalar tayyorlanib Gramm usulida va metil ko'ki bo'yog'i bilan bo'yalgach mikroskop ostida ko'rildi.

Tadqiqot natijalari.

O'RFI bilan kasallangan talabalar so'lagi ekilgan, piyozi shirasidan holi oziqli agarda oq, sariq va tillarang stafilokokklar, gemolitik streptokokklar (hamda pnevmokokklar), kandida va boshka shartli patogen mikroblar ko'p miqdorda o'sib chiqdi (1-rasm).



1-rasm



2-rasm

Oziq muhitining piyozi shirasi tomizilgan boshqa yarmida kandida zamburug'lari va morfologik o'zgarishga uchragan kam miqdordagi mikroorganizmlar o'sib, nisbatan – toza, tiniq maydon hosil bo'ldi (2-rasm).

Sog'lom talabalar so'lagi ekilgan oziq muhitlarda kam miqdorda stafilokokk, streptokokklar, ko'plab peptokokklar va diplokokklar difteroidlar va veylonellalar, achitqisimon zamburug'lar o'sib chiqdi.

Oziq muhitning piyozi shirasi tomizilgan qismida esa bu bakteriyalar o'sib chiqmadni va tiniq maydon kuzatildi.

O'tkazilgan tajriba O'RFI kasalliklarida ko'p miqdorda piyozi iste'mol qilish ikkilamchi infeksiyalarning shilliq qavat to'qimalarida shartli patogen



mikroblarning ko‘paymasligiga to‘liq asos bo‘la oladi. Piyozdagи fitonsid moddalar nafaqat bakteriyalar, sodda hayvonlar, zamburug‘ va mikobakteriyalarga ta’sir ko‘rsatadi, balki viruslarning hujayra ichida sintezini sekinlashtirishi, hamda buyrak usti bezining qitiklashi natijasida organizmning reaktivligini oshirishi ham adabiyotlarda qayd etilgan. Qolaversa, piyozda S, V vitaminlari, provitamin A va boshqa qimmatli kislotalarning borligi ko‘pgina ilmiy asoslangandir.

Xulosa:

1. Ovqat ratsionida doimiy ravishda xom piyoz bo‘lganda, organizmda kasallik qo‘zg‘atuvchi Gramm musbat va Gramm manfiy kokklar, mikobakteriyalar, kandida va sodda xayvonlar ko‘payishi uchun imkoniyat bo‘lmaydi.
2. Sintetik yoki yarim sintetik yo‘llar bilan olingan antibiotiklarning nojuya ta’sirlari piyozda yuk. Bu esa O‘RVI kasalliklarining qisqa vaqt ichida asoratsiz tuzalishiga olib keladi.

Adabiyotlar.

1. Индиаминов С. И., Расулова М. Р., Мардонов Т. М. Механизм повреждений подъязычной кости и хрящей гортани при различных воздействиях //Судебная медицина. – 2019. – Т. 5. – №. S1. – С. 161-161.
2. Индиаминов С., Расулова М. Критерии оценки степени тяжести повреждений носа //Журнал вестник врача. – 2019. – Т. 1. – №. 1. – С. 36-40.
3. Одилова Г. М., Шайкулов Х. Ш., Хусанов Э. У. Ультраструктура слизистой толстой кишки у больных острой дизентерией //Астана медициналық журналы. – 2022. – №. S1. – С. 62-68.
4. Расулова М. Р., Юлаева И. А., Шодиев Ж. Х. СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ДИАГНОСТИКИ ПЕРЕЛОМОВ КОСТЕЙ НОСА //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnalı. – 2023. – Т. 1. – №. 17. – С. 225-235.
5. Расулова М., Индиаминов С. Судебно-медицинские аспекты повреждений гортани при тупой механической травме //Журнал проблемы биологии и медицины. – 2019. – №. 1 (107). – С. 159-162.
6. Хожаназарова С. Ж. MORPHOLOGICAL STATE OF THE INTRA-ORGAN VESSELS OF THE FEMALE GENERAL ORGANS UNDER CHRONIC PESTICIDE EXPOSURE //INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 98-104.



7. Хожаназарова С. Ж. Вікові особливості внутрішньоорганних вен маткових труб //Вісник наукових досліджень. – 2010. – №. 3. – С. 92-93.
8. Шайқулов Ҳамза Шодиевич, Нарзиев Джавохир Убайдуллаевич БОЛАЛАР ИЧАК ЭШЕРИХИОЗИНИ ДАВОЛАШДА АНТИБИОТИКОРЕЗИСТЕНТ ЛАКТОБАКТЕРИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ САМАРАДОРЛИГИ // Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. 2023. №17. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/bolalar-ichak-esherihiozini-davolashda-antibiotikorezistent-laktobakteriyalardan-foydalanishning-samaradorligi>
9. Шайқулов Ҳамза Шодиевич, Эрматов Низом Жумакулович, Расурова Мухсина Розиковна, Шодиев Жавохир Ҳамзаевич, & Хожаназарова Саулеман Жубатировна. (2023). MICROSOFT EXCEL ЭЛЕКТРОН ЖАДВАЛИДАН ФОЙДАЛАНИБ ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИНИ СТАТИСТИК ҲИСОБЛАШ. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY*, 1(4), 67–75. Retrieved from <https://uzresearchers.com/index.php/ijrs/article/view/691>
10. Эрматов Ж. Физическое воспитание как фактор снижения заболеваемости детей и подростков //Вестник Новосибирского государственного университета. Серия: Биология, клиническая медицина. – 2011. – Т. 9. – №. 2. – С. 222-226.